



MAQOL, MASALLAR ORQALI BOLALARGA IJTIMOIY TARBIYA BERISH

Anvarovna Munisa Qo‘chqarova

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va
psixologiyasi yo‘nalishi IV-bosqich talabasi*

Maktabgacha tarbiya davri bolaning ma’naviy shakllanashida eng muhim boshqichidir. Shu davrda ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya-tarbiya ta’sirida shaxsnинг axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo‘ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo`lib qoladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy- axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda axloqiy his-tuyg’ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg’ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

Xalq og‘zaki ijodi vositalarininng turli janrlari, jumladan, maqol va masallar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish muhim ahamiyatga ega.

Maqollarni hayot qomusi, xalq og‘zaki entsiklopediyasi, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi. Shuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

Maqol xalq og‘zaki badiiy ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maqollar asosan hayotiy tajribalar asosida maydonga keladi. Asrlar bo‘yi og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan maqollarda keng mehnatkash xalq ommasining dunyoqarashi, jamiyat va mehnatga munosabati, ota-onaga hurmat va Vatanga cheksiz sadoqat motivlari mujassamlashgan. Shuningdek, maqollarda xalq orzuumidlari, insonparvarlik hislari ufurib turadi. Maqollar mavzu jihatidan boy, xilma-xil va rang-



barangdir. Ularda ona - Vatanni sevish, do'stlik, birodarlik, dushmanga nafrat, ahillik va birdamlik g'oyalari, yaxshilik, halollik, to'g'rilik hamda rostgo'ylik ulug'lanadi, yomonlik, yolg'onchilik va qalloblik esa qoralanadi: Maktabgacha ta'lismuassasalarida mashg'ulotlarda maqollardan foydalanish bolalarning nutq malakasini shakllantirishi, ularda hayotiy tushunchalarning boyitishi, eng asosiysi, har bir maqol mazmunidagi insoniy fazilatlar; vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, kichiklarga izzat, do'stlik va uni qadriga yetish, kamtarinlik, rostgo'ylik, halollikka o'rgatish va aksincha, yomon illatlardan holi bo'lishga da'vat etilishi masalalari o'z aksini topgan. Jumladan, maktabgacha ta'lismuassasalari tarbiyalanuvchilarida nutqiy vazifalarni hal etish uchun u yerda turli shartsharoit yaratish muhim zamin hisoblanadi. Bunday sharoit bolalarda gapirish, atrofdagilarni nomlash, nutkiy muomalaga kirishish istagini tug'dirishi kerak.

Biz o'zaro muloqat jarayonida o'z fikrimizni dalillash uchun xalq maqollaridan ko'p foydalanamiz. Bu narsa bizga nutqimizni go'zal, jozibali va ishonchli bo'lishida yordam beradi. Masalan farzand tarbiyasi haqida shunday bir fikr bor: "Sen farzandingni tarbiyalama, eng avvalo o'zingni tarbiya qil. Farzandingga biror bir xato ishni qilmaslikni qancha uqtirsang ham o'sha ishni o'zing qilsang, farzanding sen kabi shu ishni aynan takrorlaydi. Farzand – ota-onanining oynadagi o'z aksidir".

Xalq maqollari asrlar davomida sayqal topib, mumtoz qiyofa va mazmun kasb etgan, nutqda faol ishtirok etuvchi paremik birlik sifatida xalq qadriyatları, urf-odat va an'anaları, tarix va madaniyat, ta'lismi va tarbiya, odob-axloq masalalari talqini va tavsifini, umuman, millat mentalitetini to'la namoyon etuvchi ko'p qirrali hodisadir.

Maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lismi va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Maqollar to'plamlarda yetmishdan ortiq mavzu guruhlariga bo'lingan. Ularning ichida nutq madaniyati, muomala, muloqat odobi masalasiga oidlarining o'zi ichki tasniflashda oz so'zlash, tinglash, sukut saqlash, shirinso'zlik, to'g'ri so'zlash, mushohadakorlik, Vatan, kasb-hunar, farzand tarbiyasi va hokazo mavzularni o'z ichiga oladi. Albatta, biz ulardan o'z o'mida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masal (arab. — namuna, misol) — didaktik adabiyot janri. Ta'limiylararakterdag'i, aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy shakldagi asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi masalga hajviy ruh bag'ishlaydi. Masalning hikoya qismi hayvonlar haqidagi



ertaklar, novella yoki latifalarta yaqin bo‘lib, xotimasi, ta’limiy xulosasi maqol, hikmatli so‘z va iboralar tarzida bo‘ladi. Masal materiallari aksariyat ertak, majoz, novella, latifa va boshqada ham qo‘llanishi mumkin.

Masal janrining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri unda an’naviy obrazlarning doimiy qo‘llanishidir. Bo‘ri, Sher, Quyon, Mushuk, Kalamush, Eshak, Bulbul, Tulki, Xo‘Roz, Burgut, Ayiq v.k jonzotlar barcha masallarda tez-tez xarakter va bajaradigan vazifasiga qarab takrorlanib turadi. Masalda har bir obraz tanlanadi va uning tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqib maqsad va vazifalar belgilanadi. Jumladan, Bo‘ri - zolim, vaxshiy, bosqinchi, ochko‘z; Tulki - ayyor, laganbardor, yolg‘onchi; Kalamush - o‘g‘ri va kazzob; Quyon - qo‘rqaq va ojiz; Eshak - kaltafahm va go‘l singari xarakterlarda tasvirlanadi. [2]

Masallar vositasida maktabgasha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarda turli ijobiy xarakter xususiyatlarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulkayevich, A. A. (2021). XALQ OG ‘ZAKI IJODI NAMUNALARI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(5).
2. Jumanova, D. (2023). MASAL MUMTOZ ADABIYOTNING QADIMIY JANRI SIFATIDA. *Oriental Art and Culture*, 4(3), 119-129
3. Abdullayevna, G. G. (2023). Importance Of Pictures Based On Fairy Tales In Spiritual And Moral Education Of Preschool Children. *Academia Science Repository*, 4(6), 289-292.
4. Gaynazarova, G. A. (2023). OTA-ONA QARAMOG ‘IDAN MAHRUM BO’LGAN BOLALAR MA’NAVIYATIDA IJTIMOIY MUHITNING TA’SIRI. “GERMANY” MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
5. Хурвалиева, Т. Л. (2022). БОЛАЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ МУХИТГА МОСЛАШУВИДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯЛАНИШ МУАММОЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 661-667.
6. Jumanova, F. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСПЕКTLАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.



7. Ёзиева, У., & Абдиева, Ф. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. Общество и инновации, 2(11/S), 111-114.
8. Тешабоева, З. С. (2020). БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРДА КАСБИЙ МОТИВАЦИЯНИ ШАКЛАНТИРИШ МАЗМУНИ. Academic research in educational sciences, (3), 557-562.
9. Rizayeva, X. U. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING KUNDALIK TA'LIMIY FAOLIYATI DAVOMIDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI BOLA ONGIGA SINGDIRILISH DARAJASI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 129-134.
10. Rizayeva, X. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA MAHALLANING ROLI. Science and innovation, 1(B8), 2165-2168.